

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## YALMOG‘IZ KAMPIR OBRAZINING XALQ ERTAKLARIDA IFODALANISH USULLARI

*Shohista Erkinova*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

*Annotatsiya.* Ushbu tezisda yovuz kuch sifatida tasvirlangan yalmog‘iz kampir obrazi va uning ijtimoiy-mifologik asoslari yoritilgan.

*Kalit so‘zlar:* folklor, xalq ertaklari, yalmog‘iz, jodugar, dev-kampir.

O‘zbek xalqining boy og‘zaki ijodi qadim zamonlarga borib taqaladi. Yozma adabiyot vujudga kelmasidan oldinoq mazmunan boy, shaklan turli xil bo‘lgan og‘zaki adabiyot namunalari, ya’ni xalq qo‘shiq-lari, ertaklari va dostonlari vujudga keldi. Ajdodlarimizning orzu-istaklaridan bunyod etilgan xalq ertaklarida bir dam bilan daryo suvini sipqoradigan, afsonaviy Semurg‘ qanotida osmono‘par tog‘lar-u had-hududsiz dengiz, daryolardan o‘ta oladigan bahodirlar, bir evrilish bilan turli ko‘rinishlarga kira oladigan sehrgar-u yalmog‘iz kampir kabi obrazlar mujassamlashgan.

Salbiy obrazlar xalq ertaklarida juda ko‘plab uchraydi. Ularning aksariyati yaxshilikning ustidan g‘alaba qozonish uchun kurash olib boradilar. Oqibatda ular o‘zlari qazigan chohga qulaydilar. Yalmog‘izning deyarli barcha mif, afsona va ertaklarda qari va xunik qilib tasvirlanishini yaxshi bilamiz. Buning sababi, badiiy tasvirning bo‘rttirilishi orqali insonlar ongida o‘sha obrazning yovuz qahramonligi tasavvurini uyg‘otish, ertaklardagi yalmog‘iz va alvasti obrazlari orqali esa, bolalarni qo‘rqitish, ularning qilgan nojo‘ya xatti-harakatlari uchun jazolovchi qahramon sifatida gavdalantirishdir. Dastlab, yalmog‘iz so‘ziga oydinlik kiritib o‘tishni joiz deb topdik. Folklorshunos M.Jo‘raevning asarlarida qayd etilishicha, o‘zbek xalq ertaklaridagi „yalmog‘iz“ atamasi ikki lisoniy unsurdan tashkil topgan: „yal“ + „mog‘iz“. Atamaning birinchi qismi, ya’ni, „yal“ (yoki „al“) so‘zi qadimgi turkmo‘g‘ul-buryat mifologiyasidagi yovuzlik ramzi – „Alxa“ yoki „Alaxa“ obraziga aloqador bo‘lishi mumkin<sup>1</sup>. Chunki turkiy tillarda yovuz kuch sifatida tasvirlanuvchi ko‘pgina mifologik obrazlar nomi (masalan, alvasti) „al“ so‘zi ishtirokida yasalgan. Yalmog‘iz obrazidagi yovuzlikni yana ham yuzaga chiqarish uchun ularga xos bo‘lgan jumlar ham an’anaviy tarzda ertaklarda ishlatiladi. „Olmos botir“, „Bunyod polvon“, „Ermana mergan“ nomli ertaklarda qahramonga qayishadigan obrazlar tomonidan aytilgan „agar saloming bo‘lmaganda, ikki yamlab bir yutardim“ jumlasini ko‘rishimiz mumkin. Mutaxassislarning fikricha, bu so‘zlar egasi aynan

<sup>1</sup> Jo‘rayev M. „O‘zbek mifologiyasi“. – Toshkent: Fan, 2012. – B. 45-46.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Yalmog‘iz kampir obrazidir. G.N.Potanin turkiy tilda so‘zlashuvchi xalqlar folkloridagi Jelbegan, Chalbegan, Talbegan, Elbegan hamda Yalmog‘iz, Jolmous obrazlarining kelib chiqishi haqida yozar ekan, bu mifologik atamalarning barchasi turkiycha „ilon“ ma’nosini anglatuvchi „jilon // chilan“ so‘zlariga bog‘liq ekanligini qayd etgan. Agar tilimizdagi „yamlamoq“, „yalmamoq“ so‘zlari ham „biror narsani yutib yuborish“ ma’nosini anglatishni nazarda tutsak, „il // yal // al // jal“ o‘zaklari asosida yasalgan mifologik atama funksional jihatdan hind asotirida nomi tilga olingan Raxu (oy va quyoshni yutib yuborish maqsadida ularni ta’qib qiluvchi ajdarho) obrazining muqobil tiplaridan biri ekanligi ma’lum bo‘ladi. Binobarin, „saloming bo‘lmaganda ikki yamlab, bir yutardim“ iborasi o‘zida negativ va pozitiv ma’nolarni birdek namoyon etgani singari ushbu so‘zlarni aytgan obraz ham salbiy va ijobiy xislatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘ladi.<sup>2</sup> „Zar kokilli malika“<sup>3</sup> ertagida befarzand erkakga duch kelgan yalmog‘iz, unga yaxshilik qilish uchun qizil olma tutqazadi. Olmani xotiniga tutqazishni va u ko‘p o‘tmay farzandli bo‘lishini aytadi. Er olmani xotiniga yediradi va rostdan ham ular ko‘p o‘tmay o‘g‘il farzandli bo‘lishadi. Bu ertakda yalmog‘iz ezgulikga xizmat qilgan bo‘lsa, yalmog‘iz kampir obrazi uchraydigan „Semurg“ xalq ertagida salbiy obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Unda „Yarim kechada bir yalmog‘iz kampir o‘rmondan kelib, qozondagi ovqatni yeb-ichib, qozonni to‘ntarib ketibdi“<sup>4</sup> deya keltiriladi. Yalmog‘iz kampirilar faqatgina yamlab yutuvchi emas, balki qon so‘ruvchi hamdir. Bu fikrimizning isbotini „Non qudrati“ ertagidagi yalmog‘iz kampir orqali isbotlaymiz. „Yarim kechaga borganda yalmog‘iz kampir asta-sekin kelib, ko‘rning qonini so‘ra boshlabdi, uni so‘rib bo‘lgach, kenja o‘g‘ilga o‘tibdi“<sup>5</sup>. Shu bilan birga bu yalmog‘iz kampirning boshi chopib tashlangandan keyin ham suvga tegsa qayta o‘sib chiquvchi sehrli kuchga ega bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, salbiy xarakterdagi barcha kampir obrazlarining umumlashtiruvchi jihati ularning sehrli kuchga ega bo‘lishidadir. Salbiy obraz sifatida tasvirlanganligi uchun ularning tashqi qiyofasi shunga monand qo‘rqinchli bahaybat tarzda berilgan. Aynan shu sababdan ham ular qiyofasini o‘zgartira oluvchi magik kuchga ega desak, adashmagan bo‘lamiz. Ular shu darajada makkor-u hiylagar bo‘lganliklaridan, to‘g‘rilikcha dushmanini yenga olmagan

<sup>2</sup> Jumanov E. „Ertaklardagi dev, pari, ilon, yalmog‘iz obrazlarining mifologik asosi – tadqiqot // “Jahon adabiyoti” jurnali. 2022-yil 1-son.

<sup>3</sup> O‘zbek xalq ertaklari. –Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1986. – B. 351.

<sup>4</sup> Uch og‘ayni botirlar. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B. 193.

<sup>5</sup> Uch og‘ayni botirlar. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – B. 297.

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

shohlar ham kampirlarning hiyla-yu nayrang ishlari bilan maqsadlariga erisha olganlar.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jumanov E. “Ertaklardagi dev, pari, ilon, yalmog‘iz obrazlarining mifologik asosi – tadqiqot // “Jahon adabiyoti” jurnali. 2022-yil 1-son.
2. Jo‘rayev M. „O‘zbek mifologiyasi“. – Toshkent: Fan, 2012.
3. Uch og‘ayni botirlar. O‘zbek xalq ertaklari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
4. O‘zbek xalq ertaklari. Uch jildlik. Birinchi jild. – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.